XALQ DEPUTATLARI URGANCH SHAHAR KENGASHI
QARORI

2021 - yil 30 - oktabr VI-42-28-12-180-K/21 Urganch shahar hokimligi

Urganch shahridagi ko‘cha nomalarini qayta nomlash to‘g‘risida

Xorazm viloyati xokimligi xuzuridagi Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2021 yil 1 martdagi 4-1178-sonli murojaatnomasi va unda qayd etilgan Urganch shahar komissiyasining Kamolot mahallas fuqarolar yig‘ini tarkibidagi Majnuntol ko‘chasi nomini bo‘yicha takliflari viloyat komissiyasiga ko‘rib chiqish uchun taqdim qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va 2020 yil 24 iyuldagi Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi xuzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni va bu yuzadan ekspert xulosasini ko‘rib chiqib Xalq deputatlari Urganch shahar Kengashi O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi xuzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni va bu yuzadan ekspert xulosasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur yig‘ilish bayoni va bu yuzadan ekspert xulosasiga muvofiq:

- “Kamolot” mahallasiga qarashli “Majnuntol” ko‘chasi nomini “Olmaxon Hayitova” ko‘chasi deb nomlansin.

3. “Kamolot” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi:

- bir xafta muddatda o‘zlarining xujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqqan xolda, tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini;

- 10 kun muddatda ushbu qarordan nusxalarni shahar IIO FMB, shahar statistika bo‘limiga va boshqa mutasaddilarga yetkazilishini ta’minlasinlar.

4. Mazkur qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning ijro etilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari N.Matyakubov hamda

Xalq deputatlari shahar Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish hamda ekologiya bo‘yicha doimiy komissiya zimmasiga yuklatilsin.

Urganch shahar hokimi **O.Xolboyev**